ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

# ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI

**Sodirjonova Nilufar Dilshod qizi**
Talaba:
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti/Filologiya va tarix fakulteti/
sodirjonovanilufar@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23729836

**Annotatsiya:**
Ushbu maqolada **zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalari,** xususan, kognitiv lingvistika, pragmalingvistika, sotsiolingvistika va lingvomadaniyatshunoslikning rivojlanish tendensiyalari yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi zamonaviy tilshunoslikning asosiy yo'nalishlarini tahlil qilish va mavjud muammolarni aniqlashdan iborat. Tadqiqotda **tahlil, qiyosiy va tavsifiy metodlardan** foydalaniladi. Natijalar zamonaviy tilshunoslikda fanlararo yondashuv, raqamli texnologiyalar va yangi tadqiqot metodlaridan foydalanish muhimligini ko'rsatadi.
**Kalit so'zlar:**
Zamonaviy tilshunoslik, kognitiv lingvistika, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, raqamli texnologiyalar.

## Kirish

Bugungi globallashuv va raqamli kommunikatsiya sharoitida tilning inson tafakkuri, jamiyat va madaniyat bilan o'zaro aloqasini o'rganish zamonaviy tilshunoslikning muhim masalalaridan biridir. Hozirgi tilshunoslikda til faqat grammatik tizim sifatida emas, balki insonning kognitiv faoliyati, ijtimoiy munosabatlari va madaniy tajribasi bilan bog'liq murakkab hodisa sifatida tadqiq etilmoqda [1]. Ayniqsa ,raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida insonlarning muloqot shakllari ham o'zgarib bormoqda.

**Zamonaviy tilshunoslikdagi asosiy muammolardan** biri – til hodisalarini faqat strukturaviy jihatdan emas, balki kognitiv, kommunikativ, ijtimoiy va madaniy jihatlarini hisobga olgan holda kompleks tadqiq etish zaruratdir. Til jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar, til siyosati va ijtimoiy xulq atvor bilan chambarchas bog'liq [3]. Kognitiv tilshunoslikda til insonning umumiy kognitiv faoliyatidan ajralgan mustaqil tizim sifatida emas, balki konseptuallashtirish va til qo'llanilishi bilan bog'liq hodisa sifatida qaraladi[4].

**Tadqiqotning asosiy maqsadi**-zamonaviy tilshunoslikning asosiy yo'nalishlarini aniqlash, ularning rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish hamda zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda kognitiv, kommunikativ va ijtimoiy yondashuvlarning ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilanadi;

1. Zamonaviy tilshunoslikning asosiy yo'nalishlarini aniqlash.
2. Kognitiv tilshunoslikning til va tafakkur munosabatlarini o'rganishdagi ahamiyatini yoritish.
3. Pragmalingvistikaning kommunikativ vaziyat va kontekstni tadqiq etishdagi rolini ko'rsatish.
4. Sotsiolingvistikaning til va jamiyay munosabatlarini o'rganishdagi ahamiyayini tahlil qilish.

**Asosiy qism**

1. Tadqiqot zamonaviy tilshunoslikning asosiy yo'nalishlari va rivojlanish tendensiyalari ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Asosiy e'tibor kognitiv lingvistika, pragmalingvistika, sotsiolingvistika va lingvomadaniyatshunoslikka qaratiladi.

**Tadqiqot davomida tasifiy, qiyosiy,tahlil, kontekstual, metodlar qo'llanildi.**

2. **Kognitiv lingvistika** til va inson tafakkuri o'rtasidagi munosabatni o'rganadi4]. **Masalan**: 'yurak' so'zi o'zbek tilida faqat inson organizmidagi a'zoni bildirmaydi. "yuragi keng", "yuragi krqaga tortdi" kabi birikmalarda u insonning ruhiy holati va xarakterini ifodalaydi. Bu yondashuv til birliklarinj faqat lug'aviy ma'nosi asosida emas, balki inson ongida shakllangan tushunvhalar bilan bog'liq holda o'rganish imkonini beradi.

4. **Pragmalingvistik tahlil**, pargmalingvistika til birliklarining muayyan kommunikativ vaziyatda qanday ma'no anglatishini o'rganadi. **Masalan**:"Bu yerda havo biroz sovuq ekan." Bu gap " Derazani yoping " degan mazmunini anglatishi mumkin. Demak, gapning ma'nosini faqat grammatik tuzilishi orqali aniqlab bo'lmaydi. Uning ma'nosi kommunikativ vaziyat va kontekstga ham bog'liq.

5. **Sotsiolingvistika** til va jamiyat o'rtasidagi munosabatni o'rganadi. 3]. **Masalan**: yoshlar orasidagi internet muloqotida "**like**", "**post**", "**story**", kabi inglizcha birliklarning faol qo'llanishini kuzatish mumkin. Bu holat globallashuv va raqamli kommunikatsiyaning zamonaviy o'zbek nutqiga ta'sirini ko'rsatadi

6. **Lingvomadaniyatshunoslik** til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini o'rganadi. **Misol uchun,**" Mehmon otangday ulug'". Ushbu maqol o'zbek xalqining mexmondo'stlikka bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Bu yondashuv milliy dunyoqarash va qadriyatlarning tilda qanday aks etishini aniqlashga yordam beradi.

7. Tadqiqot davomida zamonaviy texnologiyalarning tilshunoslikka ta'siri ham ko'rib chiqildi. **Elektron lug'atlar ,til korpuslari, avtomatik tarjima tizimlari va suniy intelekt vositalari** lingvistik ma'lumotlarni yig'iah va tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda . **Masalan**, katta hajmdagi matnlarni komputer yordamida tahlil qilish orqali ma'lum bir so'zning qaysi kontekstlarda ko'proq ishlatilishini aniqlash mumkin. Bu esa an'anaviy qo'lda bajariladigan tahlilga nisbatan katta hajmdagi ma'lumotni tezroq o'rganish imkonini beradi. Shu bilan birga, avtomatik tarjimada kontekst va milliy-madaniy xususiytlarni to'g'ri aniqlash muammosi mavjud. Shuning uchun sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishda lingvistik va madaniy omillarni hisobga olish zarur.

**Xulosa**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy tilshunoslik tilni grammatik jihatdan emas, balki tafakkur, jamiyat, madaniyat va konnunikatsiya bilan bog'liq holda o'rganadi. Kognitiv lingvistika, pragmalingvistika, sotsiolingvistika va lingvomadaniyatshunoslik til hodisalarini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar ,elektron korpuslar va sun'iy intelekt lingvistik tadqiqotlar samaradorligini oshirmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Xudoyberganova. D.(2024). Zamonaviy tilshunoslik teeminlarining izohli lug'ati. Toshkent: Bookmany print. 112 b. ISBN: 978-9910-761-91-1.Mazkur manbada kognitiv lingvistika, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik va boshqa zamonaviy yo'nalishlar yoritilgqn.
2. Croft, W., & Cruse, D. A (2004). Cognitive linguistics. Cambridge University Press.- Kognitiv tilshunoslikning nazariy asoslari uchun muhim manba.
3. Slabakova. R.(2026). "Linguistic Pragmatics." In The Cambridge Handbook of Secondary Language Acquisition. Cambridge University Press.-lingvistik pragmatika, kommunikativ kompetensiya, nutq aktlari va kontekst masalalariga bag'iahlangan.
4. Yusupov. G. & Matsabirova, D.(2025). " Zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlari: asosiy trndensiyalar va rivojlanish yo'nalishlari."- Zamonaviy lingvistikaninh yangi yo'nalishlari va rivojlanish tendensiyalari haqida.
5. Umarova. A. " Sotsiolingvistika: til va jamiyat o'rtasidagi murakkab mjnosabatlar." Global lingvistika: yangi yondashublar va tadqiqotlar.- Til va jamiyat munosabatlarini o'rganish uchun.